

## MAXSUS BOLALARNI O'QITISHDA DIDAKTIK

### O'YINLARNING O'RNI

Zarnigor Ziyodullayeva

UBS Pedagogika magistratura mutaxassisligi 1-kurs talabasi,

**Annotatsiya:** Maxsus bolalarni o'qitishda didaktik o'yinlar - bu bolalarning o'qish, fikrlash, ijtimoiy ko'nikmalarini rivojlantirishga yordam beruvchi qiziqarli va samarali metodlardan biridir.

**Kalit so'zlar:** Didaktik, fikrlash, ta'lif, o'yinlar, maxsus, motivatsiya, ijodiy, pedagogika.

**Аннотатсия:** Дидактические игры в воспитании особенных детей являются одним из интересных и эффективных методов, помогающих развивать у детей чтение, мышление и социальные навыки.

**Ключевые слова:** Дидактика, мышление, обучение, игра, специальная, мотивация, творчество, педагогика.

**Annotation:** Didactic games in the education of special children are one of the interesting and effective methods that help to develop children's reading, thinking, and social skills.

**Keywords:** Didactic, thinking, education, games, special, motivation, creative, pedagogy.

Bugungi kunda ta'lif jarayonini rivojlantirish va uning samaradorligini oshirish dolzarb masalalardan biri bo'lib qolmoqda. Ular orasida didaktik o'yinlar o'quv Xususan, maxsus ta'lif ehtiyojiga ega bo'lgan bolalar bilan ishlashda innovatsion pedagogik texnologiyalarning ahamiyati bormoqda ortib jarayonining ajralmas qismi sifatida muhim rol o'ynaydi. Chunki didaktik o'yinlar nafaqat bolalarning bilim va ko'nikmalarini rivojlantiradi balki ularning ijtimoiy moslashuviga, kommunikativ qobiliyatlariga ham ijobiy ta'sir ko'rsatadi.

Didaktik o'yinlar o'quv jarayoniga tabiiy va qiziqarli shaklda integratsiya qilinishi mumkin bo'lib, ayniqsa maxsus ta'lif ehtiyojiga ega bo'lgan bolalar uchun muhim ahamiyat kasb etadi. Chunki bu usul orqali bolalar mustaqil fikrlash, muammolarni hal qilish va o'z bilimlarini mustahkamlash imkoniyatiga ega bo'ladilar. Didaktik o'yinlar bolaning individual xususiyatlari va ehtiyojlarini inobatga olgan holda tashkil etilganda, ularning rivojlanishiga yanada samarali ta'sir ko'rsatishi mumkin.

Mazkur maqolada maxsus bolalar ta'lifida didaktik o'yinlarning o'rni, ularning ta'lif samaradorligiga ta'siri va pedagoglar uchun metodik tavsiyalar tahlil qilinadi. Ilmiy maqolaning asosiy maqsadi – didaktik o'yinlarning maxsus bolalar o'qitish jarayonida samarali qo'llanilishining nazariy va amaliy jihatlarini o'rganishdan iborat. Shuningdek, maqolada didaktik o'yinlarning psixologik-pedagogik asoslari va ularni joriy etishning metodologik yo'nalishlari ham ko'rib chiqiladi.

Maxsus bolalarni o'qitishda didaktik o'yinlar - bu bolalarning o'qish, fikrlash, ijtimoiy ko'nikmalarini rivojlantirishga yordam beruvchi qiziqarli va samarali metodlardan biridir.

Maxsus bolalar bilan ishlashda didaktik o'yinlar quyidagi afzalliklarga ega hisoblanadi. Didaktik o'yinlar bolalarning kognitiv (fikrlash), psixologik (emotsional va ruhiy) va ijtimoiy (kommunikativ) ko'nikmalarini rivojlantiradi. Bu o'yinlar bolalarga yangi bilimlarni olishda, muloqotda bo'lishda va ijtimoiy moslashuvda yordam beradi. Didaktik o'yinlar o'quvchilarning diqqatini saqlashga yordam beradi va ularni faol o'qishga undaydi. Maxsus bolalar, masalan, aqliy rivojlanishida kechikish, autizm yoki boshqa maxsus ehtiyojlari bo'lgan bolalar, didaktik o'yinlar orqali o'zlariga mos ravishda o'qish va o'rganish imkoniyatiga ega bo'ladilar. Didaktik o'yinlar

bolalarga o‘z his-tuyg‘ularini fikrlarini ifodalash imkoniyatini beradi, bu esa ularning ijtimoiy va emotsiyal rivojlanishiga yordam beradi. Maxsus bolalar o‘yinlar orqali o‘rganishni qiziqarli va rag‘batlantiruvchi tarzda qabul qiladilar. O‘yinlar muvaffaqiyatlarga erishishda yoki maqsadlarga erishishda o‘z-o‘ziga ishontirish va motivatsiya yaratishga yordam beradi.

Didaktik o‘yinlar orasida jismoniy faoliyat o‘yinlari ham muhim ahamiyat kasb etadi. Bu o‘yinlar bolalarning aqliy ko‘nikmalarini rivojlantirishga yordam beradi. Jismoniy faoliyat o‘yinlaridan tashqari tafakkur o‘yinlari ham bolalarning fikrlash qobiliyatini rivojlantirish uchun mo‘ljallangan o‘yinlar turiga kiradi. Masalan, mantiqiy jumboqlar, didaktik kartalar, shakllar va ranglar bilan bog‘liq mashqlarni olishimiz mumkin.

San’at va kreativ o‘yinlar ham didaktik o‘yinlarning bir qismi sanaladi. Bolalarga rasm chizish, loydan yoki boshqa materiallardan shakllar yasash, qo‘l mehnati orqali o‘zlarini ifodalash imkoniyatini beradi. O‘yinlar bolalar o‘zlarini ifodalash va fikrlashda erkin bo‘lishlariga imkon yaratadi. Maxsus bolalar uchun o‘yinlar sodda va tushunarli bo‘lishi zarur, shu bilan birga ularning rivojlanishiga moslashgan bo‘lishi kerak. Bu usullarni o‘qitishda, bolaning o‘ziga xos xususiyatlariga qarab, moslashtirilgan ta’lim rejasini tuzish va har bir bolaning ehtiyojlariga e’tibor qaratish lozim.

O‘qitish jarayonida fizikal, aqliy va hissiy rivojlanishni qo‘llab-quvvatlash uchun reabilitatsiya usullari va terapevtik mashqlar qo‘llanilishi mumkin. Misol uchun, logopediya, psixologik maslahatlar, va sensorik integratsiya mashqlari bilan ishslash bolalarning rivojlanishiga yetarlicha ta’sir ko‘rsatadi. Maxsus bolalar uchun darslarni vizuallashtirish, video materiallar, o‘quv qo‘llanmalari va texnologik vositalardan foydalanish o‘qitish samaradorligini oshiradi. Bolalarning jamiyatga moslashishini ta’minlash uchun ijtimoiy ko‘nikmalarini rivojlantirishga e’tibor berish kerak. O‘qituvchilar o‘zaro munosabatlar, jamoaviy ishlar va guruhli faoliyatlar orqali ijtimoiy integratsiyani qo‘llab-quvvatlashi zarur. Har bir bola o‘ziga xos va individual ravishda o‘qitilishi kerak. Bu, bolalar bilan muloqotda bo‘lishda yoki mashqlarni o‘tkazishda o‘zgaruvchan metodlarni qo‘llashni anglatadi. Maxsus ehtiyojlari bo‘lgan bolalar ko‘pincha hissiy va ijtimoiy qo‘llab-quvvatlashga muhtoj. Ularning o‘ziga bo‘lgan ishonchini oshirish va xavotirlarini kamaytirish uchun ijobjiy muhit yaratish juda muhim hisoblanadi. samaradorligini oshirish uchun o‘yin shakllarini yanada takomillashtirish va yangi innovatsion metodlarni joriy etish lozim. Shuningdek, pedagoglarning malakasini oshirish va didaktik o‘yinlarni amaliyotga keng joriy etish ham dolzarb vazifalardan biri hisoblanadi.

- 1.Qiziqarli labirin uyinini tabiat quynida bola uchun koproq foydali bulardi.
2. Tasvir va suzlar uyinlar uyinini koproq uynash bu Bolani tasavvur olami va suz boyliklarini oshirishga koproq hissa qushgan bular edi.
3. Maxsus bolalarga sensor va mator ko‘nikmalarini rivojlantirishda didaktik o‘yinlar juda foydalidir. Misol uchun, qo‘l mehnati o‘yinlari, konstruktiv materiallar bilan ishslash, shakllar va ranglarni bilish orqali ularning motor va sensor ko‘nikmalarini yaxshilash mumkin.

## Foydalanilgan adabiyotlar:

1. «**Maxsus** pedagogika» darsligi uch bo‘limdan iborat bo‘lib, birinchi bo‘lim. Oligofrenopedagogika (P.M.Po’latova)
- 2, “Oliy ta’lim. Me’yoriy – huquqiy va uslubiy xujjatlar to’plami. Toshkent, “Istiqlol”, 2013.
3. Internet saytlar.